PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON Tajribasi.....	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQUARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI



Mirzayev Kobil Nosirjonovich

NamDTU, "Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Maqolada tadbirkorlik subyektlarida innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha innovatsion texnologiyalar iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish samaradorligi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion mahsulot, an'anaviy texnologiya, innovatsion texnologiya, sof foyda, rentabellik, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. The article provides a comparative analysis of the economic indicators of innovative technologies for expanding and improving the production of innovative products in business entities. It also provides suggestions and recommendations on the effectiveness of implementing innovative technologies in business entities.

Key words: innovation, innovative product, traditional technology, innovative technology, net profit, profitability, labor productivity, product cost, economic efficiency.

Аннотация. В статье проведен сравнительный анализ экономических показателей внедрения инновационных технологий для расширения и совершенствования производства инновационной продукции в хозяйствующих субъектах, а также даны предложения и рекомендации по эффективности внедрения инновационных технологий в хозяйствующих субъектах.

Ключевые слова: инновация, инновационный продукт, традиционная технология, инновационная технология, чистая прибыль, рентабельность, производительность труда, себестоимость продукции, экономическая эффективность.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat hayotida innovatsion tizim shu darajada jadal rivojlanmoqdaki, iqtisodiyotda innovatsiyaning qamrov darajasi kundan kunga o'sib bormoqda va natijada innovatsiya xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va intellektual salohiyat kabi mamlakatning asosiy boyligiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridiek, "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo'ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o'ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz"¹.

Respublikamizda innovatsiyani qo'llab-quvvatlash hamda uni tadbirkorlik subyektlarida qo'llash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bu tizim tobora mustahkamlanib, uning respublikamiz iqtisodiyotidagi o'rni, ish bilan ta'minlash va mahsulot ishlab chiqarishdagi salmog'i yildan-yilga oshmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr, <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>



Bugungi kunda innovatsiyani ishlab chiqarishga tadbqiq etish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasida sanoatning barcha tarmoqlarida, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlarida zamonaviy va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Biroq, zamonaviy innovatsion texnologiyani innovatsion mahsulot ishlab chiqarishda qo'llash hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish va uni amaliyotda qo'llashning quyidagi ko'rsatkichlarda hisoblash maqsadga muvofiqdir:

1. 1 kunlik innovatsion mahsulot ishlab chiqarish hajmi;
2. 1 dona innovatsion mahsulotning jami ishlab chiqarish xarajati, ming so'm;
3. 1 dona innovatsion mahsulot sotish bahosi, ming so'm;
4. Yillik innovatsion mahsulot ishlab chiqarish hajmi;
5. Jami ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm;
6. Yillik innovatsion mahsulot ishlab chiqarish qiymati, ming so'm;
7. 1 dona innovatsion mahsulot tannarxi, ming so'm;
8. 1 dona innovatsion mahsulotga sarflangan mehnat, kishi/soat;
9. Jami sof foyda, ming so'm;
10. 1 dona innovatsion mahsulotga sof foyda, ming so'm;
11. Bir kishi-soatda 1 mahsulotdona innovatsion ga sof foyda, ming so'm;
12. Rentabellik, %.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyaning mohiyati va ahamiyati bo'yicha klassik iqtisodiyoti maktabi namoyandasi A.Smitning² ayirboshlash va ishlab chiqarish nazariyasi o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi innovatsion ishlarida qayd etilgan. Iqtisodchi olim D.Rikardo³ qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar va resurslarni tejashga asoslangan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini asoslab berdi.

Rus olimi N.D.Kondratev⁴ "Uzoq to'lqinlar" nomli kashfiyotida ushbu to'lqinlar bilan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda texnologiya va vositalarning tubdan o'zgarishi bo'lgan texnologik jarayonlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Keyinchalik uning nazariyasi S.Yu.Glazev⁵ tomonidan davom ettirilib, u texnologik jarayonlarning o'zgarishini jamiyatning innovatsion yangilanishi bilan bog'ladi. Avstriyalik olim Y.A.Shumpeter⁶ innovatsiyaning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili sifatidagi ahamiyatini asoslab berdi, shuningdek, innovatsiyaning bozor iqtisodiyotida aylanishini tadqiq qildi va unga ko'ra iqtisodiyot evolyutsiyasi tuzilishi va yangisini ishlab chiqish uning eskisini yo'q qilish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, iqtisodchi olim M.V.Posner⁷ o'z ilmiy asarida, firma texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lishini, bu esa tannarxning kamayishiga olib kelishini ko'rsatdi. M.Yu. Porter⁸ esa o'zining innovatsiyaga bo'lgan ilmiy yondashuvida, dunyoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyotining 100 dan ortiq tarmoqlari raqobatbardoshligini tahlil qilish asosida korxonalar o'zlarining raqobatbardosh ustunliklariga, jumladan, innovatsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni yaxshilashga e'tibor qaratishlari zarur, degan xulosaga keldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlariga innovatsion texnologiyani jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, tadbirkorlik subyektlari yillik statistik hisobotlarini tahlil qilish va taqqoslash, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduktsiya usullaridan keng foydalanilgan.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr, <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>

3 Смит, А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит. – Москва: Издательство социально-экономической литературы, 1962.–684 с.

4 Рикардо, Д. Начало политической экономики и налогового обложения / Д. Рикардо; пер. с англ. П. Сраффа. – Москва: Эксмо, 2007. – 960 с.

5 Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения: избранные труды / Н.Д. Кондратьев, Ю.В. Яковец, Л.И. Абалкин. – Москва: Экономика, 2002. – 767 с.

6 Глазьев, С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития / С.Ю. Глазьев. – Москва: ВладДар, 1993. – 310 с.

7 Шумпетер, Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й.А. Шумпетер; пер. с нем.: В. С. Автономов, М. С. Любский, А. Ю. Чепуренко; пер. с англ.: В. С. Автономов и др. – Москва: Эксмо, 2007. – 864 с.

8 Posner, M.V. International Trade and Technical Change/M.V. Posner. //Oxford Economic Papers. New Series.–1961.–Vol. 13, No. 3.–P. 323-341.–URL: https://www.jstor.org/stable/2662034?seq=1#page_scan_tab_contents.



TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion texnologiyaning mohiyati innovatsion mahsulot ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun barcha zarur texnologik sharoitlarni yaratib berish asosida xomashyo resurslaridan yuqori va sifatli mahsulotni ishlab chiqarish, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va mahsulot rentabelligini oshirishdir.

Innovatsion texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda, uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini amalda qo'llanilayotgan an'anaviy texnologiya bilan bajarilgan ko'rsatkichlarga taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Bunda biz innovatsion texnologiyani iqtisodiy samaradorligini qancha o'sganligini bilishimiz mumkin bo'ladi va innovatsion texnologiyaning an'anaviy texnologiya bilan qiyosiy tahlili 1-jadval keltirilgan.

1-javdal. "Kosonsoy Al-Aziz" MChJdagi a'naviy texnologiyada hamda "ELEGANT PODOSHVA KLASS" MChJdagi innovatsion texnologiyada poyabzal ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi qiyosiy tahlili⁹

T/R	Ko'rsatkichlar	An'anaviy texnologiyabo'yicha	Innovatsion texnologiya bo'yicha	Innovatsion texnologiyaning an'anaviy texnologiyaga nisbatan farqi	
				+, -	%
1	1 kunlik mahsulot ishlab chiqarish quvvati, dona	100	594	494	494
2	1 dona mahsulotning jami ishlab chiqarish qiymati, ming so'm	75,7	70,2	-5,5	-7,2
3	1 kunlik mahsulot ishlab chiqarish qiymati, ming so'm (1x2)	7570,0	41698,8	34128,8	450,8
4	1 dona mahsulot narxi, ming so'm	103,5	103,5	0	0
5	Yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi, dona	28000	47907	19907	710,9
6	Jami sotilgan mahsulot tannarxi, ming so'm, (5x8)	1923600,0	3022931,7	1099331,7	57,1
7	Yillik mahsulot ishlab chiqarish qiymati, ming so'm (2x5)	2119600,0	3363071,4	1243471,4	58,7
8	1 dona mahsulot tannarxi, ming so'm (6:5)	68,7	63,1	-5,6	-8,2
9	Yillik haqiqatda sarflangan ish vaqti, kishi-soat	36146	36146	0	0
10	1 dona mahsulotga sarflangan mehnat, kishi-soat (5:9)	0,77	1,33	0,55	71,4
11	Jami sof foyda, ming so'm (7-6)	196000,0	340139,7	144139,7	73,5
12	1 dona mahsulotga sof foyda, ming so'm (4-8)	34,8	40,4	5,6	16,1
13	Bir kishi-soatga sof foyda, ming so'm (11:9)	5,42	9,41	3,99	73,5
14	Rentabellik, % (11:6x100)	10,2	11,3		1,1

Bugungi kunda bozorda sifatli va arzon mahsulotga talab tobora oshib bormoqda. Innovatsion mahsulotga bo'lgan talabning qondirilishi hozirgi kunda bozor iqtisodiyotining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 7-17 yoshgacha o'smirlar poyabzalini ishlab chiqarish va iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirish borgan sari qiyinlashib bormoqda. Chunki, mamlakatimizda aholining kundan-kunga o'sib borishi barobarida poyabzal ishlab chiqarish hajmini mos ravishda oshirishga to'g'ri kelmoqda.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga viloyatda jami aholi soni 2994671 nafarni tashkil etib, yosh guruhlari bo'yicha ajratilganda 7-17 yoshdagi o'smirlar soni 630838 nafarni yoki jami aholiga nisbatan 21,1 foizni tashkil etadi. 2020-yil yakunida esa jami aholi soni 2752880 nafarni tashkil etgani holda 2024-yilga qaraganda 241791 nafarga yoki 8,1 foizga oshganligini qayd etish mumkin. Shuningdek, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 7-17 yoshdagi o'smirlar soni 71895 nafarga yoki 11,4 foizga oshgani tahlil jarayonida ma'lum bo'ldi. Namangan viloyati tumanlari kesimida 2020-2024-yillardagi 7-17 yoshdagi o'smirlar sonini quyidagi 2-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

9 Портер, М.Ю. Международная конкуренция. Конкурентные преимущества стран: пер.с англ.—Москва:Международные отношения,1993.— 896 с.

2-jadval. Namangan viloyatida 2020-2024-yillarda 7-17 yoshdagi o'smirlar soni bo'yicha ma'lumot¹⁰

Tumanlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024-yilda 2020- yilga nisbatan farqi	
						(+, -)	Foizda
Namangan viloyati bo'yicha jami aholi soni	2752880	2810843	2867441	2931056	2994671	241791	108,1
Shundan,							
Jami 7-17 yoshdagi o'smirlar soni	558943	573895	591298	611068	630838	71895	111,4
Namangan sh.	132210	135508	141563	146569	151575	19365	112,8
Mingbuloq	25707	25910	26322	26886	27450	1743	106,3
Kosonsoy	42976	44566	45615	46761	47907	4931	110,3
Namangan	35673	36913	37642	39189	40736	5063	112,4
Norin	31218	32435	33717	34908	36099	4881	113,5
Pop	42116	43319	44593	45704	46815	4699	110,0
To'raqo'rg'on	41112	42219	43730	45522	47314	6202	113,1
Uychi	44249	45427	46263	47795	49327	5078	110,3
Uchqo'rg'on	33632	34554	35498	36948	38398	4766	112,4
Chortoq	39365	40608	42179	43821	45463	6098	113,4
Chust	46915	48026	49276	51398	53520	6605	112,3
Yangiqo'rg'on	43770	44410	44900	45567	46234	2464	105,3

Yuqoridagi jadvalga ko'ra, 2020-2024-yillarda viloyatda aholi soni oshib borgan. Ayniqsa, Kosonsoy tumanida 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 7-17 yoshdagi o'smirlar soni 4931 ga yoki 110,3 foizga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa tumanda poyabzal ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7-17 yoshdagi o'smirlarga to'g'ri keluvchi 30-39 o'lchamdagi poyabzallar ishlab chiqarish chiqarish hajmini oshirishni taqozo etadi. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, Kosonsoy tumanidagi jami 47907 nafar 7-17 yoshdagi o'smirlarni to'liq poyabzal bilan ta'minlash uchun shuncha miqdorda poyabzal ishlab chiqarishni taqozo qilmoqda. Shuning uchun, "Kosonsoy Al-Aziz" MChJda zamonaviy innovatsion texnologiyadan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari baholandi. Bunda, Namangan viloyati Uychi tumanidagi "ELEGANT PODOSHVA KLASS" MChJdagi innovatsion texnologiyaning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan "Kosonsoy Al-Aziz" MChJda amalda foydalanilayotgan an'anaviy texnologiyaning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari taqqoslandi.

An'anaviy va innovatsion texnologiyalarni taqqoslash jadvali ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yilda "Kosonsoy Al-Aziz" MChJda amalda foydalanilayotgan an'anaviy texnologiya asosida 1 kunda jami 100 juft poyabzal ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, 1 kunlik poyabzal ishlab chiqarish qiymati 7570,0 ming so'mni tashkil etadi. Shuningdek, 2024-yilda 1 juft poyabzal tannarxi 68,7 ming so'm bo'lgani holda, uning sotilish narxi 103,5 ming so'm bo'lgan va tadbirkorlik subyektida mavsumiy ish rejasi asosida mehnat faoliyatini amalga oshirgan jami 56 nafar ishchi xodimlar tomonidan jami 36146 soat vaqt birligi sarflab jami 28000 juft 7-17 yoshgacha o'smirlar poyabzali ishlab chiqarilgan.

Xitoyning "QUANZHOU BAIYU MACHINERY TECHNOLOGY CO." LTD korxonasidan CF-1610T markali lazerli innovatsion texnologiya "ELEGANT PODOSHVA KLASS" MChJ tomonidan 2022-yilda 15 ming AQSh dollariga sotib olingan bo'lib, hozirda ushbu texnologiyaning ishlash funktsiyasi korxona amaliyotiga tadbiiq etilmoqda. CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning ishlab chiqarish samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda uning texnik pasporti ma'lumotlaridan foydalanildi. CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning 1 soatlik poyabzal ishlab chiqarish hajmi 150 juftni va 1 kunlik elektr sarfi 14 kv.ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlardan foydalangan holda "Kosonsoy Al-Aziz" MChJda poyabzal ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari qayta hisoblanib tahlil qilindi.

"Kosonsoy Al-Aziz" MChJ misolida CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning 1 kunlik poyabzal ishlab chiqarish hajmi 594 juftni tashkil qiladi, ya'ni tumandagi jami 7-17 yoshdagi o'smirlar sonidan kelib chiqib tadbirkorlik subyektida 2024-yilda ishchi-xodimlar tomonidan jami ishlagan ish vaqti hisobga olingan. Demak, tumanning 7-17 yoshdagi o'smirlarning poyabzalga bo'lgan talabi 47907 juftni tashkil etadi. Vaholangki, tumanda faqat 7-17 yoshdagi o'smirlar uchun 30-39 o'lchamli poyabzal ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyekt

¹⁰ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti. www.namstat.uz



“Kosonsoy Al-Aziz” MChJ bo‘lib, 2024-yilda jami 28000 juft poyabzal ishlab chiqarilgan va talabni to‘liq qondirish uchun qo‘shimcha 19907 juft poyabzal ishlab chiqarish kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, 1 juft poyabzalning tannarxiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, an‘anaviy texnologiyada 68,7 ming so‘m bo‘lsa, innovatsion texnologiyada 63,1 ming so‘mni tashkil qiladi. Sababi, CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning kunlik elektr sarfi 14 kv. bo‘lib, hozirgi vaqtdagi xarajat summasi 6300 so‘mni tashkil etadi va 1 juft poyabzalga 10,6 so‘mga to‘g‘ri keladi. An‘anaviy texnologiyada esa bu xarajat 1063 so‘mni tashkil etadi. Shuningdek, an‘anaviy texnologiyada kunlik band xodimlari soni 3 kishini tashkil etsa, innovatsion texnologiya esa 1 kishini band qiladi va natijada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qaroriga¹¹ asosan poyabzal ishlab chiqarish tannarxi tarkibidagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar summasi kamaygan.

2024-yil yakunida “Kosonsoy Al-Aziz” MChJ sof foydasi an‘anaviy texnologiya bo‘yicha 196000,0 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyada 340139,7 ming so‘mni tashkil etadi va sof foydaning miqdori 73,5 foizga oshgan. Shuningdek, rentabellik ko‘rsatkichi an‘anaviy texnologiyada 10,2 foiz bo‘lgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyada 11,3 foizga erishish mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyada mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi bo‘yicha ijobiy natijaga erishilgani tahlil davomida kuzatildi. Jumladan, an‘anaviy texnologiyada 1 kishi 0,77 juft poyabzal ishlab chiqarishga 1 soat vaqt sarflagan bo‘lsa, innovatsion texnologiyada esa ushbu vaqt oralig‘ida 1,33 juft poyabzal ishlab chiqarish mumkin bo‘ladi. SHuningdek, an‘anaviy texnologiyada 1 kishiga 1 soatda 5,42 ming so‘m sof foyda to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyada esa 1 kishiga 1 soatda 9,41 ming so‘m yoki 73,5 foizga ko‘p sof foyda to‘g‘ri keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil yakunida shuni ta‘kidlash joizki, 7-17 yoshdagi o‘smirlar poyabzalini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarida innovatsion texnologiyani ishlab chiqarish amaliyotiga joriy qilishning quyidagi yo‘nalishlarini taklif etamiz:

1. Tadbirkorlik subyektlarida poyabzal ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash;
2. Poyabzal ishlab chiqarishga bevosita aloqador bo‘lgan infratuzilma ob‘ektlarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida qayta jihozlash va modernizatsiya qilish;
3. Zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda poyabzal ishlab chiqarishda import o‘rnini bosuvchi arzon va sifatli bo‘lgan xomashyo resurslarining kelib chiqish manbaalarini aniqlash va uni qayta ishlab chiqarish jarayoniga yo‘naltirish;
4. Poyabzal ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari sonini oshirish;
5. Tadbirkorlik subyektlarida amalda foydalanilayotgan texnologiyalarni yangi va zamonaviy innovatsion texnologiyalarga almashtirish;
6. Poyabzal ishlab chiqarish sanoatida sof raqobat muhitini oshirishda tadbirkorlik subyektlari rolini oshirish;
7. Xalqaro bozorda kuchli bozor pozitsiyasiga ega bo‘lgan poyabzal ishlab chiqaruvchi xorijiy kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda poyabzal ishlab chiqarish bo‘yicha istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish va shu loyihalar asosida investitsiya mablag‘larini o‘zlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr, <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risdagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 54-sonli qarori.
3. Смит, А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит. – Москва: Издательство социально-экономической литературы, 1962.–684 с.
4. Рикардо, Д. Начало политической экономики и налогового обложения / Д. Рикардо; пер. с англ. П. Сраффа. – Москва: Эксмо, 2007. – 960 с.
5. Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения: избранные труды / Н.Д. Кондратьев, Ю.В. Яковец, Л.И. Абалкин. – Москва: Экономика, 2002. – 767 с.
6. Глазьев, С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития / С.Ю. Глазьев. – Москва: ВлаДар, 1993. – 310 с.
7. Шумпетер, Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й.А. Шумпетер; пер. с нем.: В. С. Автономов, М. С. Любский, А. Ю. Чепуренко; пер. с англ.: В. С. Автономов и др. – Москва: Эксмо, 2007. – 864 с.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risdagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 54-sonli qarori.



8. Posner, M.V. International Trade and Technical Change/M.V. Posner. //Oxford Economic Papers. New Series.–1961.– Vol. 13, No. 3.–P. 323-341.–URL: https://www.jstor.org/stable/2662034?seq=1#page_scan_tab_contents.
9. Портер, М.Ю. Международная конкуренция. Конкурентные преимущества стран:пер.с англ.– Москва:Международные отношения,1993.– 896 с.
10. “Kosonsoy Al-Aziz” MChJning 2023-yil yakuni bo'yicha statistik hisoboti va Uychi tumanidagi “ELEGANT PODOSHVA KLASS” MChJ tomonidan Xitoyning “QUANZHOU BAIYU MACHINERY TECHNOLOGY CO.” LTD korxonasidan sotib olingan CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning texnik pasporti ma'lumotlari.
11. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti. www.namstat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
